



San'at va madaniyat sohasiga "YANGI QON" kerak

Kechagi kunimiz yangi g'oyalar va takliflar bilan boyidi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari bilan uchrashuvimizda kutilgan va

kutilmagan lahzalarga guvoh bo'ldik. Biz yoshlar bilan fikr almashish, ularning ezgu orzulari, kelajak rejalari haqida o'rtoqlashish maqsadida tashrif buyurganimizda ajoyib

spektakl ustidan chiqamiz deb o'ylamagan edik. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Qora quyosh" dramatik doston spektakli institutning

1-bosqich talabalari tomonidan mahorat bilan ijro etildi.

E'tiborimizni tortgan jihati esa yoshlarning ishonch bilan sahnada turishlari, o'zlariga yuklatilgan vazifani bekami ko'st ado etishlari, ushbu dargohda aktyorlik mahorati bo'yicha ta'lim siyosati to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan darak bermoqda. Demak, aktyorlik san'atining kelajagi ishonchli qo'llarda.



"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonda barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".



Sh. MIRZIYOYEV

BESH MUHIM TASHABBUS

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining majlisida berilgan topshiriqlarni hududlarda ijrosini tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha Respublika ishchi guruhi har bir viloyatlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini o'rganish borasida uchrashuvlar olib borishmoqda. Shunga asosan, bugun Prezident administratsiyasining mas'ul xodimi, tarix fanlari doktori, professor Abduhalil Mavrolov O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filialiga tashrif buyurdi. Uchrashuvda filial direktori, professor Shamsiddin Usmonov boshchiligidagi professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etishdi.

Abduhalil Mavrolov yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus, yoshlarga ko'rsatilayotgan ulkan e'tibor va imkoniyatlar hamda yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan masalalar yuzasidan ma'lumotlar berdi.

O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali matbuot xizmati

SHOIRNING ISH HAQI

"Abulqosim Firdavsiy bundan deyarli ming yil oldin yashab ijod etgan. Uning o'lmas "Shohnoma" doston – epopeyasi shuncha vaqtdan beri jahon adabiyotida bosh o'rin tutgan shoh asarlardan biri sifatida qadrlanib keladi. Bu asarni yozmoqni unga G'azna sultoni Mahmud G'aznaviy topshirgan edi. Shoir Firdavsiy bu vazifani bajarmoqqa uzoq yillik umrini sarf etdi. Nihoyat, u "Shohnoma"ni yozib tugalladi. Shoir bu asarni Sulton Mahmud G'aznaviyga taqdim etdi.

Sulton shoirga bu ulug' mehnati uchun ikki martaba haq to'lagan.

Ammo Firdavsiyning o'zi bu ish haqining biror bo'lagidan foydalangan emas. U umuman bu ish haqini olmagan.

Birinchi bor Sulton Firdavsiyga uning "Shohnoma" dostoni uchun bir yuz ellik ming dirham (kumush tanga) yuborgan.

Bu ish haqini unga keltirganlaridan shoir hammomdan endigina chiqib o'sha yerda dam olib o'ltirgan ekan. Shoirga ish haqi topshirilgandan so'ng Firdavsiy uni uch qismga taqsimlagan. Bir qismini ish haqini keltirgan kishiga, ikkinchi bo'lagini hammomchiga, uchinchi bo'lagini esa yana bir xizmatdagi kishiga in'om etgan.


Bundan ma'lum bo'ladiki, shoir Firdavsiy butun ijodiy kuch-quvvati, iste'dodi, bilimi, hatto umrini sarf etib yaratgan asarini undan biror foyda, manfaat, pul topish maqsadida emas, balki adabiyot, tarix, badiiy til rivoji uchun bag'ishlagan.

Albatta, Sulton Mahmud G'aznaviy ayrim shaxslar Sulton bilan shoir o'rtasida nizo tug'dirishga harakat qilganlar, hatto bunga erishganday ham bo'lganlar. Lekin biz bu masalaga alohida yondashuv kerak, deb o'ylaymiz. Shuning uchun hozir shoirning ish haqi masalasiga o'z vazifamiz – moddiylik va ma'naviylikning uyg'unligi nuqtai nazaridagina qarash niyatidamiz.

Har holda Firdavsiy o'z mehnati uchun to'langan haqni o'ziga olmadi, uni o'ziga aloqador shaxslarga taqsim qilib berdi.

Keyinchalik Sulton Mahmud G'aznaviy Firdavsiyga "Shohnoma" asari uchun ikkinchi qatla ko'plab haq to'lamoq qaroriga keldi. Bu vaqtda Firdavsiy o'zining tug'ilib o'sgan shahari Tusda edi. U qattiq bemor bo'lgan. Sultonning buyrug'iga ko'ra oltin tangalar to'la xaltalar ortilgan tuyalar poytaxt G'aznadan Tusga qarab yo'l oldilar. Uzoq masofani asta-sekin bosib o'tgan bu kichik karvon Tusga yetib keldi. U Tusga yetib kelib, bir darvozasidan shaharga kirib kelmoqda. Lekin shu paytda keksa shoir dunyodan o'tgan edi. Uning tobutini ko'targan odamlar uni Tusning boshqa darvozasidan chiqib qabristonga eltmoqda edilar.

Tusda Firdavsiyning qizi yashar edi. Shoirga to'langan ish haqini shu ayolga topshirmoqchi bo'ladilar. Firdavsiyning qizi otasiga to'lanadigan mablag'ni olmoqdan bosh tortdi. Chunki unda bu mablag'ga ehtiyoj bo'lmagan. Ehtimol shoirning qizida boshqacha biror mulohaza ham bo'lgandir. Bu bizga ma'lum emas.



Bo'lib o'tgan voqeani Sulton Mahmudga xabar qildilar. Sulton bu mablag'ni Firdavsiy yashagan joylarni obod qilmoq uchun sarf etmoqni buyurdi. Bu farmon amalga oshirildi. Shoirning vatanida ancha el-u yurt uchun foydali ishlar qilindi.

Firdavsiyga oid bu hikoya mana ming yildan beri og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodga o'tib bizgacha yetib kelgan. Men bu hikoyani Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "To'rt maqola" kitobida o'qiganman. Unda bu voqeaga oid boshqa tafsilotlar ham bor. Ammo men bu hikoyadagi bizning mavzuvga – moddiy va ma'naviy uyg'unlikka xos tomonlarinigina oldim.

Buyuk shoir Abulqosim Firdavsiy Tusiyning mehnatlari bekor ketmadi. U o'zining o'lmas "Shohnoma" asari bilan insoniyat madaniyati, adabiyoti, tafakkuri tarixiga ulkan ulush qo'shib ketdi. Unga to'langan ish haqi esa shoirning yurti, eldoshlari foydasiga sarf etildi.

Shoir qizining baland himmati, elparvarligi ham bu ishda muhim o'rin tutadi.

Ota va farzandning ma'naviy dunyosining boyligi, ularga tegishli moddiy boylarning el-u yurt uchun manfaatlariga xizmat qilinmog'iga sabab bo'ladi.

Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligining bir kichik namunasi bu voqea" (Qayumov A. Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. –B.76–78)

Ibrohim YO'LDOSHEV,
O'zDSMI rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

San'at va madaniyat sohasiga "YANGI QON" kerak

2 Spektakl taqdimotidan so'ng oliyog' talabalari bilan ochiq muloqotga kirishdik. Bir-biridan farq qiladigan yangicha g'oyalar, san'at va madaniyat sohasini rivojlantirish borasidagi takliflar bilan o'rtoqlashdik. Ta'lim sifati, o'quv dargohidagi muammolar va kamchiliklar, amaliyot jarayonlari borasida bahslashdik.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha Singapur tajribasini joriy etish, jamiyatning huquqiy madaniyatini shakllantirish haqidagi mutaxassislik darslari joriy etish, estrada teatrlarini tashkil etish, sohani rivojlantirish borasidagi g'oyalar tanlovi, xorijiy davlatlarda tajriba almashish uchun grant dasturlari e'lon qilish, kutubxonachilikni rivojlantirish maqsadida yoshlar kutubxonalarini tashkil etish haqidagi ko'plab takliflarni tingladik.

Angladikki, san'at va madaniyat sohasiga kirib kelayotgan yoshlarning shijoati baland. Ular katta va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirishga qodir. Berilgan taklif va fikrlarni tinglab bo'lgach, o'rtaga tashlangan muammo va kamchiliklarni vakolatimiz doirasida hal qilishga va'da berdik. Shu bilan

birga o'z hayotiy tajribamizdan kelib chiqqan holda maslahatlarimizni ayamadik.

Talabalik davri bilim egallash uchun eng qulay va mehnat qilib charchamaydigan davr. Yoshlikda olingan bilimlar insonning hayot yo'llarini mash'al kabi yoritib turadi. Bilimli odam esa hech qachon xor bo'lmaydi va hayotda hamisha o'z o'rnini topadi. Agarda yoshlarimiz mustaqil ravishda izlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, uni amaliyotga tatbiq eta olsalar, marra ularniki bo'ladi.

Talabalarining yuz-ko'zlariga nazar solar ekanmiz, san'at va madaniyatimizning ertangi kuniga baho berdik. Ular sohaga "yangi qon" olib kira olishiga umid bildirdik. Biz kechagi kun odamimiz, bugungi kun talablariga javob bera olmasligimiz mumkin. Maydonga chiqib kelayotgan yoshlar esa ertamiz davomchilaridir. Shunday ekan, mukammal ilm olish va o'z ustingizda muntazam ishlashdan to'xtamang. Zero, hayot murakkablashib boraveradi. Talabalik davridagi imkoniyatlar esa qaytib kelmaydi.

Ozodbek NAZARBEKOV,
Madaniyat vaziri



22-aprel kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Mangu osmon" spektaklining premyerasi bo'lib o'tdi. Ushbu sahna asari Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida institut rektori Ibrohim Yo'ldoshevga bergan ko'rsatmalari asosida ishlab chiqilgan dastur doirasida tayyorlandi. She'riy-badiiy kompozitsiyalar asosida yaratilgan spektakl Muhammad Yusufning dunyoga kelishidan boshlab maktab davri, balog'at yoshi, butun hayoti va ijodini qamrab olgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar marabbiyi, professor, sahnalashtiruvchi rejissyor Hamida Mahmudova rahbarligida tayyorlangan spektaklda rollarni Teatr san'ati fakulteti talabalari ijro etishdi. Muhammad Yusufning bolalik va yigitlik chog'laridagi rollarni Muhammadjonov Nodirbek va Bozorov Nabijonlar o'ynashdi.

Shoirning balog'at yoshiga yetganidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrlar G'ulomov Zokirjon hamda Sobirov Umidjonlar tomonidan yuksak mahorat bilan tomoshabinlar e'tiboriga havola etilib, asar qahramonining ichki kechinmalarini imkon qadar zalda o'tirganlarga yetkazib berishga harakat qilindi. Tursun buvi rolini Mamadaliyeva Sug'diyona, Halima buvi rolini esa Ashirova Shahrizalar o'ta mohirlik bilan o'ynashdi. Yusuf aka rolini Nodirboyev A'zamjon, Zebi rolini Shernazarova Sitora, Nazira rolini esa Boboqulova Muxlisalar ijro etishdi. "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasini tomonidan taqdim

qilingan spektaklning sahna bezagi rassomlar Zayniyev Jaloliddin, Valiyev Isomiddin hamda Namozov Ibrohimlar tomonidan yaratildi. Asar musiqasi Otabek Yakubov ijodiga mansub. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanib, talabalar tomonidan ijro etilgan ushbu sahna asari tomoshabinlarning gulduros qarsaklari ostida katta qiziqish bilan kutib olindi.

O'ziga xos tarzda qisqa fursatda yuksak mahorat bilan yaratilgan asar institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev hamda mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib, "Mangu osmon" spektaklini sahnaga olib chiqishda fidoyilik ko'rsatgan ssenariy muallifi, sahnalashtiruvchi rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar marabbiyi Hamida Mahmudova katta miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanadigan bo'ldi. Ushbu asarni yaratishda qatnashgan barcha ishtirokchilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Institut matbuot xizmati



NABI RAHIMOV ijodiga chizgilar

Xalq artisti, Davlat laureati Nabi Rahimov 1911-yil Qo'qonda tug'ilgan. Uning otasi usta bo'lgan: qulflarni, kerosin chiroqlarni tuzatgan, chelaklarni yamagan. Nabi Rahimov yoshligidan otasiga yordam bergan. Ammo teatrga bo'lgan katta muhabbat uni o'sha manzil sari yetaklagan. 15 yoshli Nabi puflama orkestrda klarnet chalishni o'rganadi, badiiy havaskorlar to'garagida shug'ullanadi.

Nabi Rahimovni teatrga Mirshohid Miroqilov (xalq artisti, hajviyachi) olib kelgan. Agar artistdan "Sen uchun eng qiyin bo'lgan ish nima?", deb so'rasangiz, "Tomoshabinni yig'latish qiyin, ammo kuldirish osonroq", deya javob bersa kerak. Nabi Rahimov bu ikki ishni ham mohirona uddasidan chiqqan aktyor bo'lgan. Nabi Rahimov qayerda bo'lmasin, o'zi bilan quvonch va kulgi olib kelgan.

Nabi Rahimovning professional sahnadagi ilk timsoli D. Furmanovning "Qo'zg'olon" sahna asaridagi Yegor roli bo'lgan. O'zining birinchi rolidanoq yosh iqtidor sohibi sifatida tanilgan. Keyinroq u Hamza nomidagi teatr spektakllarida faoliyat yuritadi. "Hamza" sahna asarida Nodiriy roli, "Momaqaldiroq"da Tixon roli, "Tavakkalona hazil"da Mamadali roli, "Malikayi Turandot"da Trufaldino, "Gamlet"da Laerta, "Sepsiz"da Karandsh va boshqa ko'plab rollarni ijro etgan. 1942-yil Nabi Rahimov frontga ketadi, kichik tanaffuslar orasida o'zining hazil-mutoyibalari bilan polkdoshlarining ruhini ko'targan.

1943-yil uyiga qaytadi va shu zahotiyog' "Otello"ning Yago roli ustida ish boshlaydi. Bu rolni ungacha ikki yil davomida Olim Xo'jayev o'ynagan. Nabi bu rolni butunlay boshqa talqinda gavdalandirgan. Shekspirning spektaklida fojiviyy iqtidor sohibi Abror Hidoyatov faoliyat yurita boshladi - Otello rovida. Spektaklga Yago (Nabi Rahimov) rolining iste'dodli ijrosi ham shuhrat olib keldi.

Angliya Parlamenti vakillari teatrning tomoshalar kitobida quyidagi qaydni qoldirishgan: "Hamza teatrida sahnalashtirilgan "Otello" spektaklini eng yaxshi deb hisobladik. Spektaklga Nabi Rahimov va Abror Hidoyatovlar o'zgacha shukuh bag'ishladilar. Ularga o'zimizning hurmat va tahsinini bildiramiz". Nabi Rahimovning tajribasi - ham komediya, ham fojiviyy rollarni birday a'lo darajada ijro etishidir. Nabi Rahimov ijro etgan har bir rol go'yoki u uchun maxsus yozilganday, shuning uchun ham aktyor roliga butunlay kirishib ketgan. Nabi Rahimovning Xlestakov obrazi ("Revizor") tomoshabinlar fikriga ko'ra, eng yaxshi timsol hisoblanadi. "Meshchan" (Sh.Qayumov boshchiligidagi, A.O.Ginzburg tomonidan sahnalashtirilgan) rovida N.N.Rahimovning qahramoni mashinist Nil tomoshabinlar oldida yuksak insoniy qadrga ega, hayotda she'riyat ma'nosini tushunadigan odam sifatida namovon bo'lgan.



Aktyor mahoratining eng oliy darajasi "Buyog'i sukunat" spektaklidir. Unda Nabi Rahimov ota rolini gavdalandirgan. Bu sahna asari ikki buyuk afsonaviy aktyorlar - Sora Eshont'rayeva va Nabi Rahimovlarning ta'sirli timsoli, 50 yil birga yashagan chol-u kampirlarni bir-biridan ayirishi haqidagi sahna asari hisoblanadi. Bu ikki porloq yulduzda hajviylik va fojia limmo-lim. Spektaklning so'nggi sahnasida qariyalar yana vidolashish uchun so'nggi bor uchrashadilar. Nabi Rahimov bu so'nggi uchrashuvligini bilib, ushbu sahnani to'lib-toshib o'ynaydi. U o'z rafiqasining ustidan hazilona kuladi, ularning raqsi esa... Mana, vidolashuv vaqti ham keldi, u nimanidir qidiradi, gul hadya qilmoqchi bo'ladi, ammo unda yo'qligini biz tushunamiz. Keyin cho'ntagini changallaganicha, dastro'mol axtaradi va uni gul shaklida tax qilib, o'z sevgilisiga taqdim etadi. Aktyorlarning ajoyib ijrosidan tomoshabinlar ularni uzoq vaqt qo'yib yubormay, tik turib olqishlashgan.

Uning rafiqasi bir umr uning yonida bo'lgan. U hayotdan 1993-yil ko'z yumgan. N.Rahimov bu judolikni og'ir kechirgan. Xotining dafn marosimida u shunday degan: "Lyuba, yaqinda oldingga boraman". Oradan bir yil o'tib, Nabi Rahimov ham vafot etgan.

Oqil ABDUBARNOYEV tayyorladi.

15-aprel kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'z ishini boshladi. Ushbu ayyomga puxta hozirlik ko'rildi. Institut o'ziga xos bayramona ko'rinishda bezatildi. Institut hovlisiga kiraverishda konferensiya ishtirokchilarini karnay-surnay sadolari ostida kutib olindi. Anjuman doirasida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

HAMKORLIK, IJOD, SAMARA

Uni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev kirish so'zi bilan ochib, ushbu xalqaro konferensiyaning mazmun-mohiyati, uni ilm-fan rivojlanishda tutgan o'rni va ahamiyatiga to'xtaldi. Tadbir dasturi doirasida qadimiy an'analar, urf-odatlar, madaniyatimiz, san'atimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutgan folklor, til va madaniyat masalalarini o'zida mujassam etgan kuy, qo'shiq, turli sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Anjuman dorasida "San'atkorlar" ko'shida maqomxonlik, Muhammad Yusuf nomidagi ko'shida esa mushoiralar tashkil etildi. Kunning ikkinchi yarmidan to'kechga qadar esa professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida mini futbol va voleybol bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tadi.

Tadbir dasturiga ko'ra, ishtirokchilar institutdagi innovatsion, ilmiy-ijodiy ishlar ko'rgazmasini ko'zdan kechirishdi.

ZOOM dasturi orqali tashkil etilgan, dunyoning Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon singari davlatlari, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan respublikalar vakillari ishtirok etgan konferensiyada filologiya fanlari doktori professor Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan "Baxshi" so'zi va uning etimologiyasi" mavzuida ma'ruza qilindi.

Ozarbayjonlik filologiya fanlari doktori, professor Ramiz Asker "Xamsa" asarining ozarbayjon tiliga tarjimai haqida o'z fikrlarini bildirdi.

Shuningdek, anjumanda "Epik asarda motivlar tadqiqi", "Методологии и технологии универсальных компетенций" (Tatariston), "Iskender Zülkarneyn ve Lokman Hekimye yer veren özbek masal ve efsanelerinin kaynaklari (Turkiya), "Mavsumiy marosim qo'shiqlari" singari qator mavzularda ma'ruzalar qilindi.

Xalqaro konferensiya kunning ikkinchi yarmida sho'balarga bo'lingan holda o'z ishini davom ettirdi. O'zining dolzabligi bilan ajralib turgan, qizg'in bahs-munozalarga sabab bo'lgan anjumanda tadbir ishtirokchilari tomonidan folklor san'atini ilmiy o'rganish masalalari, tilshunoslik va badiiy matn tadqiqining dolzarb muammolari, madaniy meros va ta'lim tizimidagi ilmiy-innovatsion yondashuvlar kabi mavzular muhokamalar markazida bo'ladi.

"Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi" mavzusida o'tkazilgan xalqaro anjumanda ilgari surilgan g'oyalar, bildirilgan fikrlar, aytilgan taklif va mulohazalardan kelib chiqilgan holda tegishli qarorlar qabul qilindi.

TAHRIRIYAT.



Mamlakatimizda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, siyosiy jarayonlarda ularning faolligini oshirishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zLiDeP Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali bilan hamkorlikda davlatimiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan "O'zLiDeP – yoshlar bilan birga" mavzusida uchrashuv kechasi tashkil etildi.

Uchrashuvda partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi apparat rahbari Sh.Otemisov, O'zDSMI Nukus filiali dot-senti G.Aximbetova, Yoshlar bilan ishlash, man'aviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i O.Qodirmiyazova, Yoshlar ittifoqi boshlang'ish tashkiloti yetakchisi J.Berdimuratov, partiya vakillari, filial professor-o'qituvchilari, talaba yoshlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'nggi yillarda barcha sohalarda olib borilayotgan o'zgarish va yangilanishlar, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida belgilab berilgan ustuvor vazifalar tahlili, siyosiy jarayonlarda yoshlarning faolligini oshirishga katta e'tibor qaratilib kelinyotgani, yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida bir qancha samarali ishlar, islohotlar amalga oshirilayotganligini alohida e'tirof etildi.

Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 61 mingdan ziyod a'zolarining 23 mingdan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Bu borada partiyaning "Yoshlar qanoti" tomonidan ham yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, faol, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni partiya safiga qamrab olish, ishsiz, uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, imtiyozli kreditlar ajratilishiga yordam berish maqsadida partiyaviy loyihalar doirasida bir qator amaliy ishlar olib borilayotganligi bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Ochiq muloqot davomida institutning bir qator talaba-yoshlari partiyaga xayrixohligini bildirib, a'zolikka qabul qilindi va partiya guvohnomalari topshirildi.

Asilbek QOLQANATOV,
O'zDSMI Nukus filiali talabasi

Muhammad Yusuf izdoshlari

To'garak hayotidan

Mazkur o'quv yilida Prezidentimiz qaroriga binoan O'zDSMI jamoasi Muhammad Yusuf hayoti va ijodini targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib bormoqda. Xususan, institut O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchi Xilola Abdujabborova rahbarligida ijodkor talabalar bilan ishlovchi "Muhammad Yusuf izdoshlari" to'garagining tashkil qilinganligi ham mazkur harakatlar natijasidir. To'garakka o'ndan ortiq ijodkor talabalar jalb etilgan bo'lib, to'garak mashg'ulotlari haftaning chorshanba kunlari soat 14:00 da o'tkazilmoqda. To'garakdagi ijodiy muhit yosh ijodkorlarning yanada erkin va shiddat bilan ijod qilishlariga, o'zlariga bo'lgan ishonchning yanada ortishiga samarali ta'sir etishiga ishonamiz. Kelajakda to'garak a'zolaridan ko'plab yetuk va sevimli shoirlar, el ardoqlagan Muhammad Yusufga munosib izdoshlar yetishib chiqishiga ishonamiz. Sizlarga to'garak a'zolarining ijod namunalaridan taqdim etamiz va manzur bo'ladi degan umiddamiz:



Mardnoma

Bekam-u ko'stda ham zarra gard bo'lar,
Xalq g'amin kuylagan qalbdan dard bo'lar.
Onaga tosh otma, ona yurtga ham,
Er yigit vatanni sevib mard bo'lar.

Orzuyim elimning orzusi degan,
Qayg'uyim elimning qayg'usi degan.
Tuyg'uyim muhabbat tuyg'usi degan,
Er yigit vatanni sevib mard bo'lar.

Mardlar tarifini qilsam hikoya,
Mardi bor yurtga yov sololmas soya.
Asrlar isbotin topgan bu g'oya,
Er yigit vatanni sevib mard bo'lar.

Har qarich tuprog'in ko'ziga surtgan,
Farzandlik burchini yelkaga ortgan.
Millat aravasin oldinga tortgan,
Er yigit vatanni sevib mard bo'lar.

Yurtdoshim har nafas poklab imonni,
Go'zal amallar-la bezab zamonni.
Kel yuksaltiraylik O'zbekistonni,
Er yigit vatanni sevib mard bo'lar.

Jasur TO'RAYEV,
O'zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti 3-kurs
Folklor va etnografiya yo'nalishi talabasi

Ko'klam

(Ramali musaddasi solim)

Keldi bul kun qahraton qochganda ko'klam,
Oftob ham nurlarin sochganda ko'klam.

Bul faqir olam bezangay kamtarona
Oq ro'mol-u oq libos yechganda ko'klam.

Kiydi borliq ichra ko'rkam yam-yashil to'n
Kurtag-u barg-u gulin ochganda ko'klam.

Qor erib oqqanda olam bag'ri tomon,
Jilg'alar uyg'ondi suv ichganda ko'klam.

Tinkasin tiklaydi borliq ham majolsiz
Qora kunlarning shami o'chganda ko'klam.

Bilki, Davron, qut-barokat abri yog'sin
Sen tarafga har nafas shoshganda ko'klam.

Shohrux DAVRON,
Xalq ijodiyoti fakulteti
4-kurs Ashula va raqs yo'nalishi talabasi

Ona qishloq

Qaytdim senga, o, ona qishloq,
G'uborlarim ketsin sochilib.
Onam meni sog'inar mushtiq,
Otam kutar izdosh lochinin.

Senda qolgan doimo yodim,
Shahar yo'lim to'sgani – to'sgan.
Axir sening bolangman-ku men,
Daryodek keng qalbingda o'sgan.

Qish. Izg'irin, zulmat kechalar,
Mehring tafti porlab turadi.
Olislardan tushlarimda ham,
Sog'inch hissi chorlab turadi.

Zeriktirar soxta ta'zimlar,
Atrofimda yasama kibor.
Shu on seni eslayman, axir,
Samimiylik senda ulug'vor.

Loysuvoq tom. Yomg'ir, loy ko'cha,
Sodda uylar, betakror dillar.

Yuragimning chandiqlariday,
Qadoq qo'llar, mastura qo'llar.

Suv sepilgan rayhon supalar,
Dil erkiga bo'ysunar aqlim.
Tortib ketib shoirligimga,
Qo'msay boshlar qishloqi qalbm.

Bari go'zal, bari betakror,
Tonglaringda qushlar kulgisi.
Sog'inganim yana beg'ubor,
Tandirlardan kelgan non isi...

Tashvishlardan charchatsa shahar,
Shovqinlari bermasa orom.
Men o'zingga qaytaman, shunda,
Poklab qo'ygin qalbimni mudom!

Niyatullo ELBEK o'g'li,
O'zDSMI Kino, televideniye va
radio san'ati fakulteti 3-kurs SA
va ML yo'nalishi talabasi



BIZGA SHPARGALKA



KERAK

Vaqt poyezdi yana bir o'quv yili bekatidan o'tib, navbatdagisi sari odimlamogda. Kimdir uning vagonlarida uzoq manzilgacha sayohat qiladi, kimningdir esa safari erta qariydi. Bekatlar ichida talabalik bekati sari oshiqvchilar talaygina. Afsuski, bu yo'l sari barcha yo'lovchilarni manzil sari eltib bo'lmaydi, ilm-u qobiliyatga ega kishilargina poyezd kupegasiga ilashishi kerak.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham yozgi imtihonlar asarlari uyasidek sershovqin tarzda kechadi. Kimdir do'ppisini osmonga otgan, kimdir ko'zyoshlari bilan Orol dengizini to'ldirib yuborgan. Imtihan masalasi doimo bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Sababi, ijodiy imtihonlar ko'pchilikning fikricha, maqtovga sazovor tarzda o'tmaydi. Balki haqdir, balki nohaqdir, lekin ijodiy imtihonlarga har kim o'zi bilgancho tayyorgarlik ko'radi. Ba'zilar aynan nimalarni o'rganish kerak ekanligini bilishmaydi ham. Buning oqibatida baholovchi o'qituvchilarga nisbatan noroziliklar paydo bo'lishi tabiiy hol. Fikri o'qimcha, har bir ijodiy imtihan bo'ladigan yo'nalish abituriyentlarga o'zlarining savol va talablaridan tashqari aynan nimalardan savollar tushish jadvalini e'lon qilishi kerak. Nega sport sohasida imtihan topshirayotgan abituriyentga yugurish vaqti, uzunlik sakrash masofasi yoki shunga o'xshash normalar belgilanadi-yu, san'at oliygohida tahsil olish uchun kerak bo'ladigan adabiyotlar oldindan e'lon qilinmaydi? Qanday vazifalar berilishini bilganlar o'qishga kiraversin-u, iqtidorli bo'lsa-da, qanday normalar asosida o'qishga qabul qilishni bilmaydiganlar qo'llarini og'ziga solib qolaverishsinmi? Keling, agar har bir yo'nalish o'z shpargalkasini ishlab chiqsa-yu, imtihonlar shu normalar asosida o'tkazilsa, uning foydali jihatlari keltirib o'tmoqchiman.

1. BILIM DARAJA YUQORILAYDI.

Masalan, dramaturgiyaga o'qishga topshirayotganlar uchun jahon va o'zbek

dramaturgiyasidagi 20-30 ta asarni o'qish majbur etib qo'yilsin (O'zi pyesa yozsa, u ham inobatga olinar balki). Natijada, institutga o'qishga qabul qilingan talaba Hamzani, Sharof Boshbekovni yoki Chexovni qaytadan o'qitishga zarurat qolmaydi. Rejissyor yoki aktyorlarga ham shu tarzda eng sara kino yoki spektakllar ro'yxati tartiblanishi zarur. Folklor vakillari qanday talablar asosida qabul qilinishini bilib olishsin. Boshqa amaliy yo'nalishlarga ham taalluqli.

2. TARG'IBOT HAM YUQORILAYDI.

Fikrlarimni yuqoridagi jumalarga bog'laydigan bo'lsam, o'qishga kirolmagan abituriyent ham majburiy deb belgilangan asarlarning ma'lum qismini o'zlashtirgan bo'ladi, ya'ni haqiqiy san'at tushunchasiga oz bo'lsa-da, ko'nikma shakllanadi. Bu esa aholi orasida targ'ibotning oshishiga ham xizmat qiladi.

3.

ABITURIYENTLARNING SIFAT DARAJASI HAM OSHADIL.

Umrida qo'lga kitob ushlamagan, kitob olishni o'ylab ham ko'rmagan yoki boshqa sabablar bilan shunchaki ulg'ayib qolganlarning eng katta qismi san'at va madaniyat institutiga hujjat topshiradi. Nega hujjat topshirishayotganini ko'pchiligi bilishmaydi ham. Mashhur rejissyorlarning filmlarini ko'rmagan, TVdagi yengil-yelpi seriallar og'ushida yurgan yoshlar haqiqiy san'at namunalarini o'qish davomida emas, ungacha ham bilishlari kerak. Ro'yxat shakllangach, abituriyent yo o'sha shpargalka bo'yicha tayyorlanadi yo bu dargohga qadam bosmay qo'ya qoladi.

4. SHAFFOFLIKNI TA'MINLAYDI.

Imtihan olayotgan o'qituvchi abituriyentning tashqi ko'rinishiga qarab baholamasa kerak har holda. Ijodiy imtihonlarda bitta abituriyentga nari borsa o'n daqiqa ajratilishini ham tushunish qiyin. O'tgan yili menga dardini doston qilgan ayrim abituriyentlar bu jarayon ikki-uch daqiqagina davom etganini aytib o'tgandi. Demak, ro'yxat asosida mufassal suhbat har holda adolatliroq ko'rinishda o'tadi. Ijodiy imtihondan o'zi uchun qoniqarli baho olmay, apellatsiya bergan abituriyentga ham isbot keltirish osonroq bo'ladi.

5. O'QITUVCHILARNI HAM O'Z USTIDA ISHLASHGA UNDAYDI.

Imtihan olayotgan o'qituvchi birinchi navbatda ro'yxatdagi asar, kino, spektakl va hokazolardan o'zi xabardor bo'lishi talab etiladi. Aks holda, abituriyent oldida tilini tishlab qolishi hech gap emas. Bu uslub nafaqat abituriyent yoki talabani, balki o'qituvchilarning ham bilim saviyasi oshishiga majbur etadi. Vaqt poyezdi keyingi o'quv yili bekati sari yaqinlashib bormogda. Unga chipta olish uchun esa yigit-u qizlar nima qilishni bilmay sargardon. Ular biz teleekranlarda namoyish etishga munosib deb hisoblagan seriallar va shu kabi ko'rsatuvlar bilan o'zlarini tayyorlashayotgan bo'lsa, ajablanmayman. Ta'lim dargohimizga qanday talabalarni jalb qilish o'zimizga ham bog'liq ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Otni qamchilash kerak, aks holda, ertaga ko'proq bilim jihatdan tayyor emas, faqatgina sochini yonga tarashni qoyillatadigan yoshlarga ko'zimiz tushgani qoladi.

CHO'RTKESAR

Bahor sog'inchi

Erta tong quyoshi chiqib olamga,
Bahoroy ham keldi bizni so'roqlab.
Kurtakli daraxtlar g'uncha ochganda
Gullar har shabnamga tutajaklar lab.

Toshlar uzra suzar yomg'ir tomchilar,
Dillarni yayratar qushlar sayrashi.
Dalalar to'lganda qirmiz lolaga
Ko'ringiz yigitlar, qizlar yayrashin.

Uzun tun uxlamay momolarimiz,
Tayyorlar sehrli, shirin sumalak.
To'ldirib davrani quvnoq o'g'il-qiz,
Aytalar ezgu va samimiy tilak.

Sadbarg SHUKUROVA,
Teatr san'ati fakulteti "Estrada va ommaviy tomoshalar
rejissyorligi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi.



Men she'r bitaman,
Hech kim o'qimas,
Uqqani kabi hayot hikmatin.
Suratga tushaman,
Olqishlar olam,
Qarsaklar yangrar.
Qalbmida o'kinch...
Dilimni ochaman,
Bitta imdod yo'q.
Hammaning tashvishi
Yetar o'ziga.
Quvonchni qalbinga sig'dirmagandek,
Kim ham quloq tutar g'amnok so'zimga?
Nechta qalam sindi,
Qog'ozlar siyoh,
Bitiklar to'kildi ko'z yoshim bilan.
Ajralib qolgandek ko'hna dunyodan,
Achomlashib yotgum yolg'izlik bilan.
Men she'r bitaman.
Qalb siniqlari
Achishtirib borar jismimni juda.
Og'riqdan yaralgan misralarimni
Yod olib kuylayman hatto uyquda.
Telbaman.
Bilaman tinglamang meni.
O'qimang, bitigim siz chun arzimang.
Yuragim sinmagan, ha, rost butundir,
Siz otgan toshlardan qolgan darz emas.
O'qimang she'rimni,
Ma'nosi ham yo'q.
Soxta tuyg'ulardan yaralgan so'zlar.
Sizga quvonch kerak,
Yarashmas anduh,
Sizni baxtga o'rab yashasin qizlar.

Zilolabonu XOLIKOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish
va boshqarish" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir
Eldor SHERMONOV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAIEV
Ma'rufjon YULDASHEV
O'tkir ISLAMOV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo
Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har o'ying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oqota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz -1.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida
tayyorlandi. O'lchami - A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi - 540 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 31.05.2021 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.